

BUXORO VILOYATIDA YASHIL TURIZMNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Hafizov Abdulla Olimjonovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: abdullakhafizov92@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada yashil turizmning xalqaro miqyosda ekologik muvozanatni saqlash bilan birga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni uyg'unlashtiruvchi rivojlanish modeli ekani asoslanadi. Xorijiy yondashuvlarning umumiy xulosasi sifatida "tayyor modelni ko'chirib olish" emas, balki hududiy sharoitga moslashtirilgan adaptatsiya muvaffaqiyat omili ekani ko'rsatiladi. Tadqiqotda yashil sertifikatlar, ekologik transport, jamoa ishtiroki (community-based), raqamli boshqaruv va "turist sifati"ni oshirish kabi mexanizmlar ustuvor yo'nalishlar sifatida ajratib beriladi. Maqola yakunida 2030-yilgacha kutilayotgan prognoz indikatorlar (turistlar soni, turizm daromadi, yashil obyektlar ulushi, investitsiyalar, bandlik va ekologik yuklama) asosida yashil turizmning hududiy strategik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi

Kalit so'zlar: yashil turizm; barqaror turizm; community-based turizm; yashil sertifikatlash; green mobility; smart tourism; turist oqim.

Аннотация

В данной статье обосновывается, что зеленый туризм является моделью развития, сочетающей экономические, социальные и культурные интересы наряду с поддержанием экологического баланса на международном уровне. В качестве общего вывода зарубежных подходов указывается, что фактором успеха является адаптация, адаптированная к региональным условиям, а не "копирование готовой модели." В исследовании в качестве приоритетных направлений выделяются такие механизмы, как зеленые сертификаты, экологический транспорт, участие сообщества (community-based), цифровое управление и повышение "качества туризма." В конце статьи научно освещается региональная стратегическая значимость зеленого туризма на основе прогнозных индикаторов, ожидаемых до 2030 года (количество туристов, доходы от туризма, доля зеленых объектов, инвестиции, занятость и экологическая нагрузка).

Ключевые слова: зелёный туризм; устойчивый туризм; туризм, основанный на сообществе; зелёная сертификация; зелёная мобильность; умный туризм; туристический поток.

Abstract

This article substantiates that green tourism is a development model that combines economic, social, and cultural interests while maintaining ecological balance at the international level. As a general conclusion of foreign approaches, it is shown that the factor of success is not "copying a ready-made model," but adaptation to regional conditions. The study identifies such mechanisms as green certificates, environmental transport, community-based participation, digital management, and improving "tourist quality" as priority areas. At the end of the article, based on forecast indicators expected

until 2030 (number of tourists, tourism income, share of green facilities, investments, employment and environmental load), the regional strategic importance of green tourism is scientifically highlighted.

Keywords: green tourism; sustainable tourism; community-based tourism; green certification; green mobility; smart tourism; tourist flow.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda turizmning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlari keskin kuchaygani sababli “yashil turizm” yondashuvi xalqaro siyosiy kun tartibining muhim yo‘nalishiga aylandi. BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi turizmni barqaror iste’mol va ishlab chiqarish, munosib mehnat, shaharlar barqarorligi hamda ekotizimlarni asrash kabi maqsadlar bilan bevosita bog‘lash imkonini berdi[12]. Shu nuqtai nazardan, yashil turizm faqat “tabiatni asrash” tashabbusi emas, balki resurslardan tejamkor foydalanish, mahalliy bandlikni qo‘llab-quvvatlash, merosni muhofaza qilish va xizmatlar sifatini oshirish orqali hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi kompleks model sifatida qaralmoqda[11].

O‘zbekistonda, ayniqsa tarixiy shaharlarda turizmni rivojlantirish jarayoni madaniy meros obyektlarining saqlanishi va shahar muhitining ekologik yuklamasini muvozanatlashtirish masalalari bilan chambarchas bog‘liq. Buxoroning tarixiy markazi 1993-yilda UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, obyekt maydoni 216 gektar va bufer hududi 339 gektarni tashkil etadi[14]. Bu ko‘rsatkichlar tarixiy hududni boshqarishda “merosni asrash—turizmni rivojlantirish—aholi manfaatlarini” uchligini bir vaqtda hisobga olish zarurligini anglatadi.

Mamlakatda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha vazifalar belgilangan[10]. Ammo tarixiy markazlarda turizmning kengayishi transport, chiqindi, suv-energiya sarfi, gavjumlik va mikroiklimga bosim kabi omillarni kuchaytirishi mumkin. Shu bois Buxoro viloyati sharoitida xorijiy tajribalarni “ko‘chirib olish” emas, balki ularning tamoyillarini (community-based yondashuv, yashil mobilitet, sertifikatlash, smart boshqaruv, indikatorlar monitoringi) mahalliy tarixiy-madaniy moslashtirishdan iborat.

Ushbu maqolaning maqsadi — yashil turizmni Buxoro viloyatida joriy etishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan institutsional va amaliy mexanizmlarni aniqlash, xalqaro tajribalar asosida moslashtirish modeli va baholash metodologiyasini taklif etishdir. Tadqiqot savollari quyidagilar:

- meros hududlarida yashil turizmning eng samarali boshqaruv instrumentlari qaysilar?
- sertifikatlash va yashil infratuzilma turizm qiymat zanjirida qanday rag‘batlar yaratadi?
- “smart” va “community-based” yondashuvlar Buxoro viloyatida ekologik yuklamani kamaytirib, daromadlarni diversifikatsiya qilishga qay darajada xizmat qiladi? - kabi masalalar ilgari suriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

UNEP va UNWTOning siyosatchilar uchun qo‘llanmasida barqaror turizmni joriy etishda “hamkorlikdagi boshqaruv” hamda “bir xil andoza hamma joyga mos kelmasligi” (ya’ni, hududiy sharoitga moslashtirish) g‘oyasi markaziy o‘ringa qo‘yiladi. Bu yondashuv tadqiqotimizning konseptual poydevorini belgilaydi: Buxoro uchun yashil turizm modeli tarixiy merosning konservatsiya talablari, mahalliy iqtisodiyot tuzilmasi va turistik oqim xususiyatlarini hisobga olgan holda dizaynlashni talab qiladi[11].

UNESCOning 2011-yilgi Historic Urban Landscape tavsiyasi tarixiy shaharlarni boshqarishda faqat yodgorlikni emas, balki landshaft, ijtimoiy hayot, iqtisodiy funksiyalar va shahar rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham inobatga oluvchi “holistik” yondashuvni ilgari suradi[13]. Buxoro kabi UNESCO obyektlarida bu yondashuv turizm infratuzilmasi (transport, yoritish, xizmatlar)ni modernizatsiya qilishda vizual-estetik yaxlitlik va OUV (Outstanding Universal Value) atributlarini saqlash zaruratini ilmiy asoslaydi[14].

Yashil turizm amaliyotida sertifikatlash tizimlari ekologik ko‘rsatkichlarni standartlashtirish, xizmat sifatini barqarorlashtirish va iste‘molchi ishonchini oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Green Key mezonlari energiya, suv, chiqindi, kimyoviy moddalar, ta‘minot zanjiri va xodimlar/ mehmonlar xabardorligini qamrab oladigan kompleks talablar paketini beradi[2]. Xuddi shuningdek, GSTC tomonidan tan olingan standartlar ro‘yxatlari va Green Destinations dasturlari turistik manzillar darajasida monitoring va sertifikatlashni yo‘lga qo‘yish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi[3].

Community-based turizm (CBT) adabiyotlarda mahalliy jamoaning turizm rejalashtirish, xizmat ko‘rsatish va foyda taqsimotidagi ishtirokini kuchaytiruvchi model sifatida izohlanadi; u SDG 1 va SDG 8 kabi maqsadlarga xizmat qilishi qayd etiladi[6]. UNWTOning CBT bo‘yicha global sammit materiallari ham jamoa ishtirokini moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va mahsulotlarni mahalliy lashtirish masalalarini amaliy kun tartibi sifatida ko‘rsatadi[15]. Bu yondashuv Buxoro viloyatida hunarmandchilik, gastronomiya, agro-tajriba va “experience-based” paketlar orqali daromadlarni diversifikatsiya qilishga mos keladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi aralash usuliga asoslanib, Buxoro viloyatining tarixiy-madaniy meros obyektlarida yashil turizmni joriy etish imkoniyatlarini baholashga qaratiladi. Avval diagnostika bosqichida hududning turistik infratuzilmasi, sayyohlar oqimi, resurs sarfi va ekologik yuklama bo‘yicha mavjud holat hujjatlar hamda statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda Italiya, Yaponiya, Ispaniya, Germaniya va Turkiya kabi mamlakatlarning amaliy tajribalari taqqoslama usulida solishtirilib, Buxoro sharoitiga moslashtiriladigan tamoyillar ajratib olinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro darajada yashil turizm nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni uyg‘unlashtirish vositasi sifatida tan

olingan. Bir qancha mamlakatlar bu yo‘nalishda amaliy strategiyalarni muvaffaqiyat bilan joriy qilgan. Masalan, Italiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Yaponiya, shuningdek, boshqa davlatlarda barqaror, mas’uliyatli va “community-based” turizm modellariga asoslangan yechimlar ishlab chiqilgan. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirgan davlatlar buni tayyor universal model sifatida emas, balki o‘z hududiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlariga moslashtirilgan yondashuv orqali amalga oshirgan. Shu jihatdan, xorijiy tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib olish emas, balki ularning asosiy tamoyillarini Buxoro viloyati sharoitiga mos holda adaptatsiya qilish ilmiy jihatdan eng to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

Xususan, Italiyada IT.A.CÀ Responsible Tourism Festival kabi tashabbuslar mavjud bo‘lib, bu loyiha har yili bir nechta mintaqalarda o‘tkazilib, barqaror turizmni targ‘ib qiladi. Unda mahalliy jamoalar, tadbirkorlar va sayyohlar birgalikda ekologik madaniyat, mahalliy foyda va madaniy merosni asrash bo‘yicha tajriba almashadilar. Festival turizm faoliyatini mas’uliyat bilan tashkil etish, madaniyatni saqlash va mahalliy resurslardan mas’uliyatli foydalanish konsepsiyalarini ilgari suradi. Italiyadagi shunga o‘xshash green mobility (masalan, Rim shahridagi elektromobil tizimlari va velosiped ijarasi) kabi tashabbuslar ham ekologik transportni kengaytirish orqali shaharlarda barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlaydi[9].

Yana bir muhim tajribalardan biri, Yaponiya hududida Michinoku Coastal Trail loyihasi bo‘lib, bu tabiiy yo‘llar aholi bilan hamkorlikda boshqariladi. Mazkur yo‘laklar turizmni atrof-muhitga minimal ta’sir bilan rivojlantirishga, mahalliy madaniyat va tabiiy manzarani birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishlarda ham jamoaning faol ishtiroki zarurati ta’kidlanadi, chunki mahalliy resurslarni saqlash va turizmni ekologik balansni yo‘qotmasdan tashkil etish birgalikda amalga oshiriladi. Ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror turizm konsepsiyasining markazida mahalliy jamoalarning ishtiroki turadi. Xususan, maskanlar atrofidagi tabiiy va madaniy landshaftlarni saqlab qolgan holda jamoalar bilan birga turizm strategiyalarini ishlab chiqish tajribalari mavjud. Bunday yondashuv turizm daromadlarining ko‘p qismini mahalliy aholiga yetkazib, ijtimoiy farovonlikni oshiradi hamda resurslarni saqlaydi[16].

Madagaskar, Kosta-Rika va boshqa rivojlanayotgan davlatlar misolida ko‘rinishicha, tabiatga asoslangan turizm tadbirlari orqali mahalliy iqtisodiyot va bandlik darajasini sezilarli oshirish mumkin. Ushbu misollarda sayyoh xarajatining juda katta qismi mahalliy bizneslar va jamoalarga qaytadi, bu esa barqarorlikni mustahkamlaydi[17].

Birlashgan Millatlar taraqqiyot dasturi va Jahon turizm tashkiloti kabi xalqaro institutlar barqaror turizmni amalga oshirishda iqtisodiy o‘sish, mahalliy jamoa manfaatlarini himoya qilish va ekologik majburiyatlarni birlashtirgan metodlarni qo‘llash kerakligini ta’kidlaydi. Bunda global SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari) strukturasi turizmning o‘rni sezilarli, chunki u iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarga bir vaqtning o‘zida erishishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ispaniyada yashil turizm, ayniqsa tarixiy shaharlarda, madaniy merosni saqlash va ekologik yuklamani kamaytirish maqsadida joriy etilgan. Barselona, Toledo, Granada kabi shaharlarda turistik oqimni tartibga solish, piyoda hududlarni kengaytirish, jamoat transportini rivojlantirish orqali tarixiy muhit saqlab qolinmoqda. Eng muhim jihati shundaki, bu jarayonga mahalliy aholi faol jalb etilgan: kichik oilaviy mehmonxonalar, hunarmandlar va gastronomik xizmatlar turizm qiymat zanjirining markaziga qo'yilgan. Bu tajriba Buxoro uchun juda muhim, chunki viloyatda ham tarixiy markazlarda turistlar sonining ortishi ekologik va madaniy bosimni kuchaytirishi mumkin. Ispaniya modeli shuni ko'rsatadiki, yashil turizm orqali turistlar sonini ko'paytirish emas, balki turist sifatini oshirish ustuvor bo'lishi lozim.

Germaniyada yashil turizm aniq reglamentlar va standartlar asosida rivojlangan. "Green Destination", "EcoLabel" kabi sertifikatlash tizimlari mehmonxona, transport va turizm xizmatlari uchun majburiy mezon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, davlat yashil standartlarga rioya qilgan kichik biznes subyektlarini soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali rag'batlantiradi. Bu yerda diqqatga sazovor jihat — yashil turizm iqtisodiy manfaat bilan chambarchas bog'langan. Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik talablar biznes uchun to'siq emas, balki raqobat ustunligiga aylanishi mumkin. Buxoro viloyatida ham yashil sertifikatlashni joriy etish orqali oilaviy mehmon uylari va kichik turizm subyektlarini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Turkiya uzoq yillar davomida ommaviy turizmga tayangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda yashil turizmga bosqichma-bosqich o'tish strategiyasini amalga oshirmoqda. "Green Star" dasturi doirasida energiya tejamkorligi, suv resurslarini tejash, chiqindilarni qayta ishlash kabi talablar mehmonxona sektorida keng joriy etilgan. Turkiya tajribasining Buxoro uchun muhim jihati shundaki, u ommaviy turizm sharoitida ham yashil mexanizmlarni joriy etish mumkinligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ziyorat turizmi rivojlangan hududlarda (Buxoro sharoitida ham bu juda dolzarb) yashil standartlar orqali turizmning salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin.

Avstriyada yashil turizm asosan qishloq va tabiiy hududlarda rivojlantirilgan. Bu mamlakatda oilaviy mehmon uylari, agro-turizm va ekologik marshrutlar orqali mahalliy aholi asosiy foyda oluvchi subyektga aylangan. Turizm faoliyati tabiatni saqlash, qishloq aholisining bandligini ta'minlash va hududiy tenglikni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida qaraladi. Buxoro viloyatining chekka tumanlari va qishloq hududlari uchun Avstriya tajribasi juda mos keladi. Ayniqsa, agro-turizm, milliy taomlar, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq yashil marshrutlarni rivojlantirish orqali hududiy tafovutlarni kamaytirish mumkin.

Janubiy Koreyada yashil turizm raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. "Smart tourism city" loyihalari doirasida QR-guide, raqamli xaritalar, ekologik monitoring tizimlari va onlayn boshqaruv platformalari joriy etilgan. Bu yechimlar turistlar oqimini boshqarish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik yuklamani nazorat qilish imkonini beradi. Buxoro viloyati uchun ushbu tajriba ayniqsa dolzarb, chunki tarixiy obidalarni saqlash sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida fizik bosimni kamaytirish mumkin. Masalan, virtual

ekskursiyalar yoki raqamli yo‘riqnomalar orqali turistlarning ma’lum obyektlarga haddan tashqari to‘planishini oldini olish mumkin. Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmning muvaffaqiyati texnologiya yoki moliyadan ko‘ra ko‘proq to‘g‘ri boshqaruv va mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olish bilan bog‘liq. Hech bir davlat yashil turizmni birdaniga mukammal darajada joriy etmagan — u bosqichma-bosqich, sinov va xatolar orqali shakllangan. Buxoro viloyati sharoitida ham yashil turizmni rivojlantirish aynan shu yo‘l bilan, ya’ni xorijiy tajribalarni tanlab, ularni mahalliy tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarga moslashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Aynan shunda yashil turizm hudud uchun vaqtinchalik loyiha emas, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish mexanizmiga aylanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni barqaror sog‘lom iqtisodiyot va ekologik saqlash strategiyasi sifatida muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakatlar — Italiya, Yaponiya, Afrika davlatlari kabi — mahalliy jamoa, ekologik boshqaruv va ijtimoiy manfaatlarini uyg‘unlashtiradigan siyosatlarni shakllantirgan. Buxoroda ham bu yo‘nalishlar, tungi iqtisodiy foydalarni oshirgan holda, hududiy resurslarni muhofaza qilish va barqaror turizmni birlashtirishga xizmat qiladi[1].

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmni muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlarda bu yo‘nalish faqat ekologik tashabbus emas, balki aniq iqtisodiy va ijtimoiy natijalar berayotgan soha sifatida shakllangan.

Xususan, Germaniyada yashil turizm tizimli ravishda rivojlantirilgan bo‘lib, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatdagi mehmonxonalarning 30–35%i ekologik sertifikatga ega. Turizm sohasida qayta tiklanuvchi energiya ulushi esa 40 % dan ortiq. Yashil turizm, xususan, tarixiy va madaniy meros bilan bog‘liq xizmatlar hisobiga yiliga 20 mlrd yevrodan ortiq daromad shakllanadi. Turizmda band bo‘lgan aholining taxminan 25%i ekologik yo‘naltirilgan xizmatlarda ishlaydi. Muhimi shundaki, Germaniyada yashil sertifikatga ega mehmonxonalar odatiy mehmonxonalarga nisbatan 10–15 % yuqori bandlik darajasiga ega. Bu ekologik talablarning iqtisodiy jihatdan ham samarali ekanini ko‘rsatadi.

Ispaniyada yashil turizm ayniqsa tarixiy hududlarda faol joriy etilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra Barselona va Granada kabi shaharlarda turistlarning 45–50 % i piyoda yoki ekologik transportdan foydalanadi, tarixiy markazlarda avtomobil harakati 30–35 % ga qisqartirilgan, madaniy meros obyektlariga tushayotgan ekologik yuklama 20 % atrofida kamaygan hamda yashil turizm hisobiga mahalliy kichik biznes daromadlari yiliga o‘rtacha 12–14 % ga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm turistlar sonini kamaytirmaydi, aksincha turist sifati va sarf-xarajatini oshiradi.

Turkiyada “Green Star” dasturi doirasida 2023-yil holatiga ko‘ra 600 dan ortiq mehmonxona yashil sertifikat olgan, sertifikatlangan mehmonxonalarda suv sarfi 15–20 % ga, elektr energiyasi sarfi esa 10–18 % ga qisqargan. Ekologik standartlarga o‘tgan turizm obyektlarida operatsion xarajatlar o‘rtacha 8–10 % ga kamaygan hamda ziyorat turizmi hududlarida mahalliy bandlik yiliga 5–7 % ga oshgan. Turkiya tajribasi Buxoro uchun ayniqsa dolzarb, chunki har ikki hududda ham ziyorat va tarixiy turizm ustun yo‘nalish hisoblanadi.

Avstriyada yashil turizm qishloq hududlarida iqtisodiy rivojlanish vositasiga aylangan mamlakatdagi agro-turizm obyektlarining 60 % dan ortig‘i ekologik sertifikatga ega, yashil turizm orqali qishloq hududlarida bandlik 20–25 % ga oshgan, turistlarning 70 % gacha qismi mahalliy oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanadi hamda turizm daromadlarining 50 % dan ortig‘i hudud ichida qoladi. Bu ko‘rsatkichlar yashil turizmning hududiy tenglik va qishloq rivojlanishidagi rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Janubiy Koreyada yashil turizm raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan. Masalan, “Smart tourism city” loyihalari joriy etilgan hududlarda turistlar oqimi 15–18 % ga oshgan, QR-guide va raqamli boshqaruv orqali tarixiy obyektlarga tushayotgan yuklama 20 % ga kamaygan, turistlar oqimi vaqt va hudud bo‘yicha muvozanatlashgan hamda ekologik monitoring tizimlari orqali chiqindi hajmi 10–12 % ga qisqargan. Bu raqamlar raqamli texnologiyalar yashil turizmni samaraliroq boshqarish imkonini berishini isbotlaydi (1-jadval).

1-jadval

Xorijiy tajriba asosida Buxoro viloyati uchun “Yashil turizm” imkoniyatlarini baholash¹

Xorijiy tajriba (davlat)	Asosiy yashil mexanizm	Xorijda erishilgan natija	Buxoro uchun moslashtirish yo‘li	Buxoroda kutilayotgan natija
Germaniya	Yashil sertifikatlash va energiya tejamkorlik tizimi	Energiya sarfi 15% qisqardi, bandlik 25% oshdi	Eco-mehmonxonalar va oilaviy mehmon uylari uchun yashil standartlar ishlab chiqish	Xarajatlar 8–10% kamayadi, turizmda bandlik 15–20% gacha oshadi
Ispaniya	Tarixiy markazlarda yashil boshqaruv	Turist bosimi 30% ga kamaydi, daromad 12–14% oshdi	Buxoro tarixiy markazida piyoda yo‘laklari va yashil hududlar tashkil etish	Tarixiy va madaniy meros saqlanadi, turist sifati va daromad oshadi
Turkiya	Green Star dasturi	Suv sarfi 20% kamaydi, xizmat sifati oshdi	Ziyorat turizmi obyektlari uchun yashil mezonlar ishlab chiqish	Resurslar tejaladi, xizmat samaradorligi oshadi
Avstriya	Agro va qishloq yashil turizmi	Qishloqda bandlik 25% oshdi	Chekka tumanlarda agro-eco klasterlar tashkil etish	Hududiy bandlik va daromad barqaror oshadi
Janubiy Koreya	Smart va yashil turizm	Chiqindi 12% qisqardi, oqim muvozanatlashdi	QR-gid, smart marshrut va monitoring	Ekologik yuklama kamayadi, boshqaruv yaxshilanadi

Xorijiy tajribalar asosida umumlashtirilganda, yashil turizmni tizimli joriy etgan davlatlarda turizm daromadlari yiliga o‘rtacha 8–15 % ga oshadi, ekologik yuklama

¹ Muallif ishlanmasi

15–30 % gacha qisqaradi, mahalliy aholi bandligi 10–25 % oraliq¹ida ko‘payadi va turizm daromadlarining hududda qolish darajasi sezilarli oshadi. Mazkur statistik natijalar yashil turizmni faqat ekologik tashabbus sifatida emas, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishning samarali mexanizmi sifatida baholashga ilmiy asos yaratadi (2-jadval).

2-jadval

Buxoro viloyatida yashil turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha kutilayotgan ko‘rsatkichlar¹

Ko‘rsatkichlar	2025-yil	2030-yil	Izoh
Turistlar soni, mln kishi	1,05	1,35	Yashil marshrutlar va xizmatlar hisobiga barqaror o‘shishga erishiladi
Turizm daromadlari, trln so‘m	1,10	1,65	Turist sarfi va xizmat sifati oshadi
Yashil turizm obyektlari ulushi, %	38	55	Eko-mehmonxonalar va yashil sertifikatlariga erishiladi
Yashil investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m	420	850	Davlat-xususiy sheriklik va xorijiy investitsiyalar evaziga o‘shishga erishiladi
Mahalliy bandlik, ming kishi	18,5	26,0	Eco-mehmonxonalar, agro va hunarmandchilik sohaslarida bandli ta‘minlanadi
Ekologik yuklama, indeks	88	70	Resurs tejash va raqamli boshqaruv evaziga yuklama pasayadi

Keltirilgan prognoz ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyatida yashil turizmni tizimli rivojlantirish 2030-yilgacha hududiy turizmning sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi. Xususan, yashil investitsiyalar hajmining oshishi, ekologik obyektlar ulushining kengayishi va mahalliy aholi bandligining ko‘payishi turizm daromadlarining barqaror o‘shishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, ekologik yuklamaning bosqichma-bosqich kamayishi tarixiy-madaniy merosni saqlash va resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Mazkur jarayonlar yashil turizmni Buxoro viloyati uchun uzoq muddatli strategik rivojlanish omiliga aylantiradi.

Buxoro viloyatida yashil turizmni rivojlantirish bo‘yicha shakllantirilgan prognozlar hududning mavjud resurs salohiyati, so‘nggi yillardagi statistik tendensiyalar hamda xorijiy tajribalarni adaptatsiya qilish imkoniyatlariga asoslanadi. 2023-yil bazaviy ko‘rsatkichlari bilan solishtirilganda, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda turizm sohasida sezilarli miqdoriy va sifat o‘zgarishlari kutilmoqda.

Prognozlarga ko‘ra, viloyatga tashrif buyuruvchi turistlar soni 2025-yildagi 1,05 mln kishidan 2030-yilga kelib 1,35 mln kishiga yetishi mumkin. Ushbu o‘shish asosan yashil marshrutlarning joriy etilishi, ekologik toza transport vositalaridan foydalanish hamda xizmatlar sifati oshishi bilan izohlanadi. Bunda turistlar oqimining keskin emas, balki barqaror sur‘atlarda ko‘payishi hudud uchun ekologik va ijtimoiy jihatdan maqbul hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Turizm daromadlari hajmi ham sezilarli darajada oshishi prognoz qilinmoqda. Xususan, 2023-yilda 0,72 trln soʻmni tashkil etgan turizm daromadlari 2030-yilda 1,65 trln soʻmga yetishi kutilmoqda. Bu holat turistlar sonining koʻpayishi bilan bir qatorda, bir turistga toʻgʻri keladigan oʻrtacha xarajatlar hajmining oshishi bilan ham bogʻliq boʻlib, yashil turizm doirasida yuqori qoʻshimcha qiymatga ega xizmatlarning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Yashil turizm obyektlari ulushi 2023-yildagi 29 foizdan 2030-yilda 55 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda. Bu koʻrsatkich eko-mehmonxonalar, oilaviy mehmonxonalar, agro-turizm obyektlari va ekologik sertifikatlash tizimlarining keng joriy etilishi hisobiga taʼminlanadi. Mazkur jarayon turizm infratuzilmasining sifat jihatdan yangilanishiga olib keladi.

Shuningdek, yashil investitsiyalar hajmining 220 mlrd soʻmdan 850 mlrd soʻmgacha oshishi kutilmoqda. Bu oʻsish davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish bilan bogʻliqdir. Investitsiyalar oqimi, oʻz navbatida, mahalliy aholi bandligini ragʻbatlantiradi.

Prognozlarga koʻra, yashil turizm sohasida band boʻlgan mahalliy aholi soni 2023-yildagi 13,2 ming kishidan 2030-yilda 26 ming kishiga yetadi. Bu jarayon qishloq va chekka hududlarda bandlikni oshirish, daromadlar manbalarini diversifikatsiya qilish va hududiy ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Eng muhim natijalardan biri sifatida ekologik yuklama indeksining 100 birlikdan 70 birlikka tushishi kutilmoqda. Bu esa resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish orqali tarixiy-madaniy merosni saqlash imkonini beradi. Umuman olganda, prognoz natijalari yashil turizmni Buxoro viloyatida barqaror iqtisodiy oʻsish va ekologik muvozanatni taʼminlovchi muhim strategik yoʻnalish sifatida qarash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajribalar yashil turizmning muvaffaqiyati texnologiya yoki moliyadan koʻra koʻproq toʻgʻri boshqaruv, mahalliy jamoa ishtiroki va aniq standartlar bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Italiya va Yaponiya misolida jamoa hamkorligi va masʼuliyatli turizm madaniyati, Ispaniyada esa turist oqimini tartibga solish hamda piyoda hududlarni kengaytirish tarixiy merosni asrashda samarali ekani tasdiqlanadi. Germaniya va Turkiya tajribasi sertifikatlash va resurs tejamkorligi biznes uchun toʻsiq emas, balki raqobat ustunligi va xarajatlarni kamaytiruvchi omil boʻlishi mumkinligini namoyon etadi. Avstriya tajribasi qishloq-agro yoʻnalishlar orqali hududiy tenglik va bandlikni oshirish imkonini bersa, Janubiy Koreya modeli raqamli boshqaruv vositalari ekologik yuklamani pasaytirib, oqimni muvozanatlashtirishga xizmat qilishini koʻrsatadi. Buxoro sharoitida ushbu tamoyillarni adaptatsiya qilish “turist soni”ni keskin koʻpaytirishdan koʻra “turist sifati va sarfi”ni oshirish, meros yadro hududlarini periferik eko/agro resurslar bilan bogʻlash va yashil brandingni kuchaytirish orqali yuqori natija berishi mumkin. Shunday qilib, yashil turizm Buxoro uchun vaqtinchalik loyiha emas, balki 2030-yilgacha barqaror

iqtisodiy o‘shish va ekologik muvozanatni ta’minlaydigan uzoq muddatli strategik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdellatif, H., Hicham, B., & Karim, B. (2024). Responsible green tourism: A new path for eco-friendly tourism development. *International journal of economic perspectives*, 18(2), 560-589.
2. Foundation for Environmental Education. (2021). *Green Key criteria and explanatory notes 2021–2025*.
3. Global Sustainable Tourism Council. (2024). *List of GSTC-recognized standards (31.12.2024)*.
4. Green Destinations. (2024). *Destination certification program (Brochure, 2024.1)*.
5. IT.A.CÀ – Festival del Turismo Responsabile. (n.d.). Home page / Manifesto.
6. Jackson, L. A. (2025). Community-based tourism: A catalyst for achieving the United Nations Sustainable Development Goals one and eight. *Tourism and Hospitality*, 6(1), 29.
7. Lee, P., Hunter, W. C., & Chung, N. (2020). Smart tourism city: Developments and transformations. *Sustainability*, 12(10), 3958.
8. Ministry of the Environment, Japan. (n.d.). *Michinoku Coastal Trail (English)*.
9. Policy recommendations in the field of sustainable tourism. A study produced for the SWITCH-ASIA Programme by Lead Partner Heraklion Development Agency under sub-contractor PLOIGOS.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, January 28). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida (PF-60-son Farmon)*.
11. United Nations Environment Programme, & World Tourism Organization. (2005). *Making tourism more sustainable: A guide for policy makers*.
12. United Nations General Assembly. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/70/1)*.
13. UNESCO. (2011). *Recommendation on the Historic Urban Landscape*.
14. UNESCO World Heritage Centre. (n.d.). *Historic Centre of Bukhara*.
15. UNWTO, & One Planet Network. (2020). *One Planet vision for a responsible recovery of the tourism sector*.
16. <https://www.wta-web.org/wp-content/uploads/2025/07/Developing-Local-Communities-through-Sustainable-Tourism-Development-Roadmap.pdf>
17. <https://www.worldbank.org/en/topic/environment/brief/nature-based-tourism>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**